



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th March, 2025

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARINI SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

Teshabayeva Oygul Fazliddinovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Surdopedagogika va inklyuziv ta'lrim
kafedrasi o'qituvchisi

Ismailova Mohichehra Davron qizi

Surdopedagogika yo'nalishi 402 – guruh talabasi

tesabaevsamira@gmail.ru

Tel:+998999190750

Shaxs atrofdagi olamni, undagi xodisalarni faol anglovchi va qayta ishlovchi insondir. Shaxs jamiyatda o'z-o'ziga va boshqalarga nisbatan ma'lum pozitsiyada turuvchi, ma'lum qarashlar, fikrlar, ideallar tizimiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ijtimoiy mavjudot bo'lsa ham, uni shaxs deb bo'lmaydi. Bola shaxsi kattalar bilan muloqotda insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallah jarayonida shakllanadi .

Shaxs - bu ongga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy - iqtisodiy formada yashaydigan, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan individdir. Shaxs tarkib topishi uzoq, muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir. Shaxs xususiyatlari ruhiy jarayonlarning kechishiga ta'sir etadi. Shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruhiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. Shaxs xususiyatlari atrof - muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Ruhiy jarayonlarni kechishi va shaxsning ruhiy xislatlari va xolatlariga oliy asab tizimining tipologik va temperament xususiyatlari (xolerik, sangivinik, flegmatik, milanxolik) ta'sir etadi, shuningdek bu jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarida aks etadi. Inson oliy asab tizimi faoliyatining tipologik xususiyatlari bu butun xolda namoyon etib, inonning o'ziga xos ichki dunyosini xarakterini tashkil etadi. Shaxs o'zini anglash xususiyatlariga ega. Inson butun umri davomida oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiyl talim maktablarida, o'rta va maxsus o'quv yurtlarida hamda oliy o'quv yurtlarida, qolaversa mehnat jamoalarida tarbiyalanib boradi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Jamoa kishidan ma'lum maqsad yo'lida intiladigan ijtimoiy faol o'zining hamma kuch - g'ayratini ijtimoiy foydali maqsadlarga sarf qiladigan bo'lishini talab etadi. Jamoaning fikrini hurmatlash, jamoa uchun munosib kishi bo'lishga intilish hap bir kishining o'ziga xos belgisidir.

Oilaning bolaga bo'lган ta'siri quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi : "ona - bola", "ota - bola", "ona - ota". Bu yo'nalishlar "bola – ota-ona" tizimiga birlashtirilgan bo'lib, har bir yo'nalishning alohida va tizimni yaxlit xolda to'liq amalga oshishi bola shaxsining, uning shaxslararo munosabatlar doirasining uyg'un ravishda rivojlanishini ta'minlaydi. Bolaning mактабгача та'lim muassasasiga qadam qo'yishi, ayniqsa maktabga borishni boshlashi bolaning borliq bilan munosabatlari tizimida o'zgarish yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. "Bola – kattalar" tizimida defferensatsiya yuzaga keladi: "bola - o'qituvchi" va "bola – ota-ona" yo'nalishlari bilan birgalikda "bola - bolalar" tizimi ham birga amalga oshirila boshlanadi (Elkonin).

Eshitishda nuqsoni bo'lган bola shaxsining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchidan, kar bola eshituvchi odamlar bilan muloqotda cheklangan bo'ladi, bu ma'lumotni egallash jarayonini sekinlashtiradi. Ikkinchidan eshitish analizatorining faoliyatini buzilishi emotsiнал rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lган akustik olam (inson ovozi, qushlar sayrashi, musiqiy ovozlar) angash imkonidan mahrum qiladi. Uchinchidan eshituvchi bolalardan farqli eshitishda nuqsoni bo'lган bolalar insonlarning ijtimoiy tajribasini egallahdan maxrumdir. Maxsus bog'cha va maktablarga qadar eshitishda nuqsoni bo'lган bolalar rivojlanishi sekin tempda amalga oshadi. Muloqot qiyinchiligi va eshituvchilar bilan muloqotining cheklanishga ularning umumiyl rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xarakterning ayrim xususiyatlari, shaxs qirralari kabi maxsus tashkil etilgan ijtimoiy sharoitlarda amalga oshadi. Sog'lom odamlar ichida yashab kar bola eshituvchi tengdoshlariga nisbatan o'zgacha munosabatni sezadi, bu unda shaxs qirralari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lган bolalarni shaxs xususiyatlarini shakllantirishda oilaning o'rni yuqoridir. Rus psixologи M.G.Morozovaning ta'kidlashicha, eshitishida nuqsoni bo'lган bolalarni shaxsini shakllantirishda, korreksion-pedagogik ishlarni samarali tashkil etishda ota-onalarning ta'lim muassasa bilan hamkorlik munosabatlari muxim o'rин egallaydi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lган bolalar



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

oilasidagi munosabatlar turli ko'rnishga ega.Bir qator adabiyotlarda oilada muommoli (nuqsonli) bolaning tugilishini anglashning bir qancha psixologik fazalari yoritilgan(G.G.Guzaev,D.Lyuteman,E.Shuxard).

Birinchi faza-ko'rquv hissi bilan xarakterlanadi. Ota-onalarning rivojlanishida muammosi bilan tug'ilgan farzandlarining taqdiri uchun aybdorlik hissi yuqori bo'lib, buning natijasida turli salbiy emotsiyalar yuzaga keladi. Oilaviy munosabatlarni buzilishiga olib keladi.

Ikkinci faza-farzandiga qo'yilgan tashxisdan qonoqmaslik yoki uni inkor etish.Oiladagi barqarorlik,,hotirjamlikni saqlash maqsadida qilingan inkorlik natijasida ota-onalar turli ko'ngilsiz kechinmalardan qochishga harakat qiladilar.

Uchinchi fazada ota-onalar farzandiga qo'yilgan tashxisni tushunib tushkun likka tushib qoladilar.

To’rtinchi fazada-mustaqlil holda ota-onalar mutaxasislarga murojaat qilish holati. Ota-onalar sharoitni to’g’ri baholab,ijtimoiy-psixologik moslashuvga ilk qadamni qo’yish hamda, bolaning qiziqishlari bilan o’rtoqlashish,adekvat emotsiyalar,hissiy munosabatni o’rnatishga kirishadi.Ota-ona hayotiy qarashlari,yashash sharoitlarini, maqsadlarini o’zgartiradi.Asosiy bosh maqsad-tshitish muammosi bilan tug’ilgan farzandini tarbiyalashga qaratadi.

Eshitish muammosi bilan tug'ilgan bolaning oilasidagi oilaviy munosabatlar o'ziga xos ko'rinishga ega. Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy rivojlanishi me'yorda bo'lganligi sababli, sog'lom bolalar kabi oiladagilari, qavmi-qarindoshlari, tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji, o'zgalar bilan muloqot qilish istagi ilk rivojlanish vaqtidan yuzaga keladi. Ko'pgina oilalarda bolalarni tashqi muloqotdan chegaralash, bolalarni internat tipidagi ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari tufayli aksariyat hollarda bolalar ijtimoiy hayotga moslashuviga, shaxs xususiyatlarini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ilk yoshlaridan ijtimoiy-hissiy rivojlantirish ishlari mактабгача ta'lim muassasalaridan amalgam oshirish yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

Ijtimoiy-hissiy rivojlantirish quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:



E CONF SERIES




International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Ijtimoiy-hissiy rivojlanishirish quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:



Sog'lom ijtimoiy-hissiy rivojlanishni amalga oshirishda bola hayotining ilk kunlaridanoq xavfsiz muhit va kattalar bilan pozitiv muloqotning o'matilishi muhim rol o'ynaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola shaxsining adekvat ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, avvalam bor, bolaning turli hatti-harakatlar mazmunini anglashi, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi, o'zgalarga hamdardlik, ularni tushunishi va ularga hurmatni ifoda etishi, shuningdek, jamoadagi bolalar bilan birgalikda faoliyatda faol ishtirok etishi bilan shakllanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni shaxs xususiyatlarini shakllantirishda oilaviy sog'lom muhit muhim .



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th March, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Психология глухих детей. /Под ред. Соловьев И.М., Шиф Ж.И., Розановой Т.В., Яшковой Н.В. –М., 1991.

Психолого-педагогическая диагностика. Под редакцией И.Ю.Левченко и С.Д.Забрамной. М., АСАДЕМА, 2005г.

Pedagogik- psixologik diagnostika D.A.Nurkeldieva Toshkent
“VNESHINVESTPROM”, 2019 y.